

SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI

ISSN: 2181-3477



WWW.SCIENCEBOX.UZ



ILK SHARQ RENESSANSI DAVRIDA MARKAZIY OSIYO MUTAFFAKKIRLARINING SIYOSIY QARASHLARI



Turdiyev Bexruz Sobirovich

*Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, Falsafa
fanlari doktori (DSc)
b.s.turdiyev@buxdu.uz*

Annotatsiya: Ilk Sharq Rennessansi davrida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi jahon ilmini rivojlantirgan olimlar yetishib chiqishdi. Ular jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishiga, davlat va uning vazifalariga, huquqning paydo bo'lishi, mohiyatiga katta e'tibor berishgan. Mazkur maqolada mazkur mutafakkirlarning siyosat va huquq masalalari haqidagi qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: adolat, qonun, adolat, shahar, tinchlik, farovon, huquq, davlat, harbiy, siyosat.

Kirish

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ushbu hududlarda siyosiy va huquqiy ta'limotlarning keyingi rivojiga turtki bo'lgan. IX asrda Bag'dodda "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi") – Islom Sharqining o'z davridagi Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan edi. Movarounnahrda esa yangi mustaqil Somoniylar davlati vujudga kelgan bo'lib, Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlarda ilmiy, madaniy aloqalar rivojlangan. Buxoro va boshqa markaziy shaharlarda Islom dini ta'limotining asosiy manbalari bilan birga shariat bilimlarini o'qitish uchun madrasalar ochilgan. Ularda ta'lim olgan kishilar faqatgina qozi bo'lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlar bilan ham shug'ullanishgan: ya'ni, tabobat, handasa, matematika, kimyo, falsafa, mantiq, tarix kabi fanlarni o'zlashtirishgan.

Xorazmshoh Abul Abbos Ma'mun ancha bilimli, ma'rifatparvar hukmdor bo'lib, o'z davrida olim va shoirlarni qo'llab quvvatlagan. Urganchda Xorazmshohlar saroyida zamonasining yirik mutafakkirlari Ibn Sino va Beruniydan tashqari Abu Sahl Masihiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abul Xayr ibn Hammor, Abu Abdulloh al-Xorazmiy kabi olimlar to'planishgan. Xorazmshoh Ma'mun homiyligida "Bilimdonlar uyi" tashkil etilgan.

Metod va metodologiya

Mazkur maqolada IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan siyosiy ta'limotlarni tahlil qilish, ularning davrning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va huquqiy jihatlarini ochib berish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu maqsadda erish uchun tadqiqotda tarixiy-taqqoslash metodidan foydalanib, IX-XII asrlardagi siyosiy ta'limotlarning o'ziga xos jihatlari, ularning ilgari va keyingi davrlar bilan bog'liqligi aniqlanadi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning keyingi siyosiy-huquqiy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada huquqiy-tahliliy metoddan

foydalanib, davlat boshqaruvi, adolat, qonun ustuvorligi kabi tushunchalar turli mutafakkirlar tomonidan qanday talqin qilinganligi huquqiy nuqtai nazardan tadqiq etiladi.

Muhokama

Davlatning paydo bo'lishi va rivojlanishi Sharq Uyg'onish davrida Abu Nasr Forobiy siyosiy-huquqiy ta'limotida yuqori darajada ilmiy o'rganilgan. Abu Nasr Forobiy yunon falsafasini chuqur bilganligi, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilganligi hamda zamonasining ilmlarini chuqur bilganligi, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shganligi uchun "Al-muallim as-soniy", "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" kabi nomlarga sazovor bo'ldi.

Forobiyning dunyoqarashida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy fikrlar ham muhim o'rin egallaydi. Allomaning "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola", "Buyuk kishilarning naqllari", "Musiqa haqida katta kitob", "Fuqarolik siyosati" va boshqa asarlari jamiyat va uni boshqarish, axloq, xulq-odob va ta'lim – tarbiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida inson masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Buyuk faylasufning ijtimoiy – siyosiy qarashlari gumanistik ruh bilan sug'orilgan. U o'zining ijtimoiy, axloqiy va gumanistik qarashlarida jamiyatning va insonning o'zaro munosabati, insoniylik, odamiylik, adolat, mukammal jamoa, komil inson, baxt-saodatga erishuv kabi masalalarni tahlil qilganda, ularga nazariy–falsafiy, ratsionalistik, gumanistik va umuminsoniy mezonlar nuqtai nazaridan yondashadi.

Forobiyning qimmatli fikrlaridan biri shuki, u Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Forobiy o'rta asrlar sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligini, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkin emasligini asoslab beradi. "Har bir inson, - deydi Forobiy – o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko'paydilar va yerni aholi yashaydigan qismiga o'rtnashdilar" [1]. Shaharlar, uning fikricha, insonlarning jamoa bo'lib uyushishining oliy shakli bo'lib, unda insonni barkamol bo'lib yetishishi uchun zaruriy sharoitlar bo'ladi. Forobiy insonlar tabiiy ehtiyojlar natijasida o'zaro birlashib, jamoani tashkil qilganligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy ulug' gumanist, insonparvar faylasuf sifatida inson qadr-qimmatini kamsituvchi va o'zga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi. Mutafakkir odamlarni tinch-totuv va o'zaro hamkorlikda yashashga, insonparvar bo'lishga da'vat etadi. "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari uchun o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim", – deydi mutafakkir.

Forobiyning e'tiborga sazovor fikrlaridan biri jamiyat taraqqiyotida geografik muhitning o'rni masalasidir. Faylasufning o'ylashicha, geografik muhit, ya'ni kishilarning muayyan hududda yashashi ularning turmush tarzi, urf-odatlar, axloqi, xulq-odobiga ta'sir ko'rsatadi, jamoaga birlashuviga yordam beradi. U mukammal jamiyat to'g'risidagi ta'limotida odamlarni turli guruhlariga ajratadi. Bunda u insonlarni qaysi dinga e'tiqod qilishiga, irqiga qarab emas, balki aqliy qobiliyati, bilimi, ilm-fanga qiziqishini inobatga oladi.

Forobiy shahar-davlatlarni fozil va johilga ajratadi. Fozil shahar o'z xalqini baxt-saodatga eltishi, uning boshlig'i esa adolatli, yuksak axloqli va ma'rifatli, o'zida butun ijobiy xislatlarni to'plagan bo'lishi lozim. Lekin, Forobiyning aytishicha, shahar yoki mamlakatlar bo'ladiki, ularning aholisi nafsga berilgan, butun fikri-zikri boylik to'plash bo'ladi. Forobiy bunday shaharlarni johil shaharlar deb ataydi. Johil shaharlarning boshliqlari ham faqat boylik to'plashga ruju qo'ygan bo'ladi. "Ulardan chiqqan rahbarlar ham, – deb ta'kidlaydi alloma, – rahbarlikni mol-dunyoni ko'paytirishda deb biladilar. Shuning uchun ham ular erta-yu kech mol-dunyo to'plash harakatida bo'ladilar. Bunday rahbarlarning qo'l ostida bo'lgan shahar xalqlarida har turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko'ra olmaslik, bir-birini talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo'ladi".

Mutafakkir insonning jamiyatdagi o'rnini aniqlab, inson tabiatining va mijozlarining turlicha bo'lishi ularning xohishi va maqsadlari ham turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi, binobarin "insonlarning maqsad va niyatlari har xil bo'lgach, san'at va hunar ham turlicha bo'la boshladi", ya'ni bu mehnatning taqsimlanishiga olib keladi, deydi.

Beruniyning fikriga ko'ra, davlat va qonunlar inson baxt-saodati uchun xizmat qilishi, davlatni esa ma'rifatli podshoh boshqarishi lozim. Abu Rayhon Beruniyning e'tirof etishicha, jamiyatning insoniylik mezoni odamlarning kundalik ehtiyojlari qanchalik qondirilganligi bilan belgilanadi. Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta'minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishdir.

Abu Ali ibn Sino (970-1037) o'zining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarida antik va Islom ilmiy tafakkuri an'analariining turli yo'nalishlarini birlashtirib, o'zining oila, jamiyat va davlat boshqaruv masalalarining huquqiy asoslarini ishlab chiqdi. Ayniqsa, Ibn Sinoning inson huquq va erkinliklari, uning davlat tomonidan ijtimoiy himoyalaniishi, ijtimoiy adolat va adolatli davlat boshqaruvining o'zni haqidagi qarashlari mutafakkirning "Ash-Shiffo fi al-ilohiyyot" asarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, ushbu asarda mutafakkir:

birinchidan, davlat va huquq masalasini tahlil etib, huquqiy jamiyatning vujudga kelishida din va payg'ambarning o'rniga to'xtalib o'tgan;

ikkinchidan, payg'ambar, uning fikricha, ilohiy va an'anaviy qonunlarni, shuningdek, uni millat va shaharga yetkazuvchi qonun ijodkori sifatida gavdalantirilgan;

uchinchidan, shaharda istiqomat qiluvchi jamoani uchta iyerarxik toifaga bo'lgan: boshqaruvchilar, hunarmandlar va harbiylar.

Ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, unda mutafakkir davlatning mavjudligini jamiyat bo'linishi bilan bog'lab, o'zaro uchta tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Qonun ijodkorining qonun ishlab chiqarish va mamlakat boshqaruvidagi asosiy maqsadi jamiyatni uch toifaga bo'linishi lozimligi bilan bog'lab o'tadi. Bular: 1) boshqaruvchilar; 2) hunarmandlar va 3) harbiylar. U qonun chiqaruvchining har bir guruh tepasiga bir rahbar tayinlanishi lozimligi, uning ostidagilar uchun esa boshqa rahbarlar qo'yilishi va u odamlarning umumiy boshqaruvga kelguniga qadar davom etishi lozimligi ta'kidlangan.

Mutafakkir, davlatda barqarorlik va tinchlikni saqlash uchun barcha narsa qonun bilan tartibga solinishi va bunga mas'ul bo'lgan shaxslar jamiyatning uchta tarkibiy qismini qamrab olishi lozimligini uqtiradi: birinchidan, mutafakkir hokimiyatning o'z tarkibiga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan iborat bo'lishi, ular boshqaruv qoidalarini ishlab chiqish orqali davlatni boshqarishga mas'ul ekanligini ta'kidlaydi; ikkinchidan, tadbirkor va ishbilarmonlarni mamlakatdagi iqtisodiy ishlarni rejalashtiruvchi, tashkil etuvchi va amalga oshiruvchilar sifatida tavsiflaydi; uchinchidan, davlat qo'riqchilari (soqchilar), harbiylar, siyosatchilarni davlat xavfsizligini muhofaza qilishga javobgar bo'lgan tashkilotlar sifatida talqin etadi.

Xulosa

IX-XII asr Markaziy Osiyo mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy qarashlarini yanada chuqur o'rganish davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari bugungi siyosiy tizimlar bilan aloqadorligini tushunishga yordam beradi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinoning siyosiy qarashlari zamonaviy demokratiya, huquqiy davlat va ijtimoiy adolat konsepsiyalarini hozirgi konstitutsiyaviy huquq tamoyillarini, davlat boshqaruvi haqidagi qarashlarini zamonaviy davlat nazariyalari bilan solishtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bugungi Xalqaro tashkilotlarning boshqaruv modellarini tarixiy an'analalar bilan bog'lab, o'rta asr siyosiy falsafasining hozirgi davrdagi siyosiy strategiyalarga ta'sirini chuqurroq o'rganib, istiqbolli tadqiqot yo'nalishlarini belilab olish yordam beradi. Hamda ularni zamonaviy siyosiy, huquqiy va iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lab, amaliyotga tadqiq etish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. –B.4.
2. Sobirovich, T. B. (2024). Renewal of Societal Ideosphere: An Analytical Study of Medieval Philosophical Thought. *Philosophy*, 8(3), 12-18.
3. Turdiev, B. S. (2024). Balancing national and universal perspectives: the dialectical dynamics in society's ideosphere. *Asian Journal of Basic Science & Research*, 6(3), 59-65.
4. Sobirovich, T. B. (2020). The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers. *International journal of advanced research and review*, 5(10), 60-65.
5. Sobirovich, T. B. (2024). Exploring the Ideosphere: A Comprehensive Examination of Eastern Philosophical Perspectives and Their Societal Reflections.
6. Sobirovich, T. B. (2020). Evolution of ideas and views on the development of democratic society and spiritual renewals. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 10, 243-250.
7. Turdiyev, B. S. (2021). Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 443-451.
8. Turdiyev, B. S., & Wekke, I. S. (2024). Illuminating the Legacy of Al-Farabi, Ibn Sina, and Al-Biruni: Exploring Political and Legal Philosophies in Transoxiana. *Asian Journal of Basic Science & Research*, 6(2), 159-166.